Taraqqiyot spektri
ILMIY JURNALI
Vol 2 № 5 2026

O‘ZBEKISTON VA FRANSIYA O‘RTASIDA DIPLOMATIK MUNOSABATLARNING O‘RNATILISHI (1991–2004 YILLAR)

Islomaliyev Shohruh G’ofurjon o’g’li

Toshkent Shahar Aniq va ijtimoiy fanlar unversiteti Tarix (yo‘nalishlar va faoliyat turi bo‘yicha) 2-kurs magistiranti Namangan viloyati Yangiqo’rg’on tumani 4-maktab o’qtuvchisi

Shohruhislomaliyev173@gmail.com

Oltiboyev Alisher Meyliyevich

Ilmiy rahbar: t.f.f.d., PhD

Annotatsiya. O‘zbekiston Respublikasi va Fransiya o‘rtasida diplomatik munosabatlarning o‘rnatilishi hamda 1991–2004-yillardagi rivojlanish jarayonlari tarixiy manbalar va rasmiy hujjatlar asosida tahlil etiladi. Tadqiqotda O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng olib borgan ko‘p vektorli tashqi siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida Fransiya bilan hamkorlik aloqalarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Xususan, ikki davlat o‘rtasida diplomatik munosabatlarning o‘rnatilishiga olib kelgan siyosiy omillar, elchixonalar faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi, davlat rahbarlarining rasmiy tashriflari hamda hukumatlararo muzokaralarning mazmun-mohiyati ochib berilgan. Maqolada 1993-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Fransiyaga amalga oshirgan rasmiy tashrifi va uning ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishdagi ahamiyati alohida tahlil qilinadi. Shuningdek, siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va ilmiy-texnik hamkorlik yo‘nalishlarida erishilgan natijalar hamda imzolangan bitimlarning mazmuni o‘rganilgan. O‘zbekiston va Fransiyaning xalqaro tashkilotlar

doirasidagi hamkorligi, mintaqaviy xavfsizlik masalalaridagi pozitsiyalari hamda o‘zaro manfaatlarga asoslangan aloqalarining rivojlanish tendensiyalari ilmiy jihatdan baholangan. Tadqiqot davomida tarixiylik, qiyosiy tahlil, tizimlilik va xolislik tamoyillaridan foydalanilgan. Muallif tomonidan O‘zbekiston–Fransiya munosabatlarining dastlabki bosqichi ikki mamlakat o‘rtasidagi strategik hamkorlikning shakllanishida muhim poydevor vazifasini bajarganligi asoslab beriladi. Shuningdek, 1991–2004-yillar davomida yaratilgan huquqiy-me’yoriy baza keyingi davrlardagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishiga xizmat qilgani ko‘rsatib beriladi. Maqola natijalari O‘zbekistonning mustaqillik yillaridagi tashqi siyosati tarixini o‘rganishda hamda Fransiya bilan ikki tomonlama munosabatlarning evolyutsiyasini tadqiq etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Fransiya, diplomatik munosabatlar, tashqi siyosat, Islom Karimov, diplomatiya, xalqaro munosabatlar, davlat tashriflari, elchixona, ikki tomonlama hamkorlik, Yevropa davlatlari, savdo-iqtisodiy aloqalar, madaniy hamkorlik, xalqaro tashkilotlar, strategik sheriklik, tarixiy tahlil.

Xalqaro munosabatlar zamonaviy dunyo siyosiy hayotining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, davlatlar o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy aloqalarni tartibga solishda muhim o‘rin tutadi. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashuvi hamda davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning kuchayishi xalqaro hamkorlik tushunchasining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ilmiy adabiyotlarda xalqaro hamkorlik turli yondashuvlar asosida talqin qilinadi[1]. Umuman olganda, u davlatlar o‘rtasida o‘zaro manfaatdorlik asosida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda olib boriladigan faoliyat sifatida izohlanadi. Mazkur jarayon ishonch, tenglik, o‘zaro hurmat va manfaatlar muvozanati kabi tamoyillarga tayanadi. Uning asosiy maqsadi global barqarorlikni ta’minlash, iqtisodiy rivojlanishga erishish hamda xalqlar

1 Botirov A. Yangi O‘zbekistonning Fransiya bilan savdo-iqtisodiy aloqalari: istiqbol va natijalar. // Xalqaro munosabatlar. – Toshkent: JIDU, 2023. –B. 45-52 .

o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni mustahkamlashdan iboratdir. Shu sababli bugungi kunda davlatlar uchun tashqi siyosatni faqat milliy manfaatlarni ilgari surish vositasi sifatida emas, balki xalqaro tizimda barqaror va uzoq muddatli munosabatlarni yo‘lga qo‘yish mexanizmi sifatida ham ko‘rish zarurati kuchaymoqda.

Xalqaro munosabatlar nazariyasida davlatlararo hamkorlik masalasi turli ilmiy maktablar doirasida o‘rganilgan. Realizm nazariyasiga ko‘ra, davlatlar xalqaro maydonda o‘z manfaatlarini himoya qilishga intiluvchi asosiy subyektlar sifatida qaraladi. Ushbu yondashuvda davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar ko‘proq kuchlar muvozanati, xavfsizlik va milliy manfaatlar bilan belgilanadi[2]. Liberalizm nazariyasi esa bu jarayonni kengroq talqin qilib, iqtisodiy integratsiya, xalqaro tashkilotlar, huquqiy me’yorlar va umumiy qadriyatlar asosida barqaror sheriklikni shakllantirish mumkinligini ta’kidlaydi. Konstruktivizm yondashuvi esa davlatlararo munosabatlarda g‘oyalar, identitet, tarixiy xotira va madaniy omillarning roliga alohida e’tibor qaratadi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, davlatlar o‘rtasidagi aloqalar faqat moddiy manfaatlar bilan emas, balki o‘zaro tushunish, tarixiy tajriba va madaniy yaqinlik orqali ham shakllanadi. Bu holat ayniqsa O‘zbekiston va Fransiya kabi tarixiy-madaniy merosga boy davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi”[3].

Diplomatiya xalqaro munosabatlarning eng qadimiy va eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Diplomatik faoliyat orqali davlatlar o‘rtasida rasmiy muloqot yo‘lga qo‘yiladi, siyosiy muzokaralar olib boriladi, kelishuvlarga erishiladi hamda turli nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish imkoniyati yaratiladi. Diplomatiya tarixan davlatlararo munosabatlarning shakllanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, zamonaviy davrda u xalqaro huquq normalari asosida faoliyat yuritadi. Elchixonalar, konsulliklar, xalqaro tashkilotlar va maxsus diplomatik vakolatxonalar bugungi diplomatiyaning asosiy institutlari sifatida namoyon bo‘ladi. Diplomatik munosabatlarning huquqiy asoslari 1961-yilda qabul qilingan

2 Толипов Ф. Стратегическое партнерство в Центральной Азии: вызовы и перспективы. – Ташкент: Университет мировой экономики и дипломатии, 2017. – С. 15 .

3 International Relations Theories – Dunne T., Kurki M., Smith S. *International Relations Theories: Discipline and Diversity*. 6th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2024. –P. 54 .

Diplomatik aloqalar to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi bilan tartibga solinadi. Ushbu hujjat davlatlar o‘rtasidagi diplomatik vakolatxonalar faoliyati, diplomatlarning maqomi va xalqaro muloqotning asosiy huquqiy me’yorlarini belgilab bergani bilan muhim ahamiyatga ega.“Davlatlar o‘rtasidagi rasmiy munosabatlar ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shakllarda amalga oshiriladi. Ikki tomonlama diplomatiya bevosita ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni qamrab olsa, ko‘p tomonlama diplomatiya xalqaro tashkilotlar va mintaqaviy tuzilmalar doirasida olib boriladi. Har ikkala shakl ham zamonaviy tashqi siyosatda alohida o‘rin tutadi. Masalan, O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi munosabatlar ikki tomonlama rasmiy muloqot asosida shakllangan bo‘lsa-da, ularning BMT, YUNESKO, Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasidagi hamkorligi ko‘p tomonlama diplomatiya bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Shu jihatdan qaraganda, diplomatik munosabatlar davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirishda nafaqat rasmiy vosita, balki uzoq muddatli ishonch va siyosiy barqarorlikni ta’minlovchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi”[4]. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda iqtisodiy diplomatiya alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo‘nalish davlatlar o‘rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish hamda milliy iqtisodiy manfaatlarni xalqaro maydonda ilgari surishga qaratilgan. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy diplomatiya orqali mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish, yangi bozorlarga chiqish va yuqori texnologiyalarni jalb etish mumkin. Shu bois bugungi tashqi siyosatda iqtisodiy omillar tobora ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston va Fransiya munosabatlari misolida ham buni yaqqol ko‘rish mumkin: siyosiy muloqot iqtisodiy loyihalar bilan mustahkamlanmoqda, investitsiyaviy kelishuvlar esa ikki tomonlama sheriklikni amaliy natijalar bilan boyitmoqda.

Shuningdek, “yumshoq kuch” konsepsiyasi ham zamonaviy diplomatiyada muhim o‘rin tutadi. Ushbu tushunchaga ko‘ra, davlatlar boshqa mamlakatlarga faqat siyosiy yoki

4 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qonuni. (O‘RQ-330). 09.08.2012 y. // Lex.uz

iqtisodiy vositalar orqali emas, balki madaniyati, ta’lim tizimi, san’ati, tili va qadriyatlari orqali ham ta’sir ko‘rsatadi. “Madaniy diplomatiya aynan shu jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Fransiya bu borada dunyoda o‘ziga xos tajribaga ega davlatlardan biridir. Fransuz tili va madaniyatining xalqaro miqyosda keng tarqalganligi, Fransiya madaniy markazlari va ta’lim dasturlarining ko‘plab mamlakatlarda faol ishlashi ushbu siyosatning samarali natijalaridan dalolat beradi”[5]. O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarni o‘rganishda ham “yumshoq kuch” omili alohida ahamiyat kasb etadi, chunki madaniy yaqinlik siyosiy va iqtisodiy sheriklikning ijtimoiy asoslarini mustahkamlaydi. Zamonaviy diplomatiyaning yana bir muhim yo‘nalishi jamoatchilik diplomatiyasi va raqamli diplomatiyadir. Jamoatchilik diplomatiyasi davlatning xorijiy auditoriya bilan bevosita muloqot o‘rnatishi, o‘z siyosatini tushuntirishi va xalqaro jamoatchilik fikriga ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan faoliyatni anglatadi. Raqamli diplomatiya esa internet, ijtimoiy tarmoqlar va zamonaviy axborot texnologiyalari orqali olib boriladigan tashqi siyosiy faoliyat shaklidir. “Bugungi kunda davlat rahbarlari, tashqi ishlar vazirliklari va diplomatik vakolatxonalar ijtimoiy tarmoqlar orqali xalqaro auditoriya bilan tezkor muloqot olib bormoqda. Bu jarayon diplomatiyaning ochiqligi, tezkorligi va ta’sirchanligini oshirmoqda. O‘zbekiston tashqi siyosatida ham so‘nggi yillarda ochiqlik va axborot almashinuvi kuchayib, bu mamlakatning xalqaro maydondagi imijini mustahkamlashga xizmat qilmoqda”[6]. Davlatlararo aloqalarni rivojlantirishda xalqaro tashkilotlarning roli ham beqiyosdir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, Jahon savdo tashkiloti, YUNESKO kabi tuzilmalar davlatlar o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarni muvofiqlashtirishda muhim platforma vazifasini bajaradi. Ushbu tashkilotlar doirasida davlatlar global muammolarni hal etish, xavfsizlikni ta’minlash, inson huquqlarini himoya qilish, madaniy merosni asrash va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha o‘zaro maslahatlashuvlar olib boradi. O‘zbekiston va

5 Троицкий Е.Ф. Политика Европейского Союза в Центральной Азии (1992–2012 гг.). // Вестник Томского государственного университета. – Томск, 2013. – № 368. – С. 98-103. 2.12. Poujol C. L'Ouzbékistan à la croisée des chemins. – Paris: Karthala, 2005. – P. 331.
6 Халмурадов Р. Роль культурной дипломатии в развитии узбекско-французских отношений. // Central Asian Journal of Social Sciences. – Tashkent, 2020. – № 1. – С. 77-85.

Fransiyaning xalqaro tashkilotlar doirasidagi muloqoti ham ikki tomonlama aloqalarning kengayishiga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, madaniy meros, ta’lim, ekologiya va mintaqaviy barqarorlik masalalarida tomonlarning xalqaro maydondagi hamkorligi alohida e’tiborga loyiqdir.

“O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng 1992-yil 28–29-oktabr – O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Fransiyaga ilk rasmiy tashrif bilan bordi. Ushbu uchrashuvda ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarning asosiy tamoyillari belgilandi. Tashqi siyosatida ko‘p vektorli va o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratdi. Mamlakatning geosiyosiy joylashuvi, iqtisodiy salohiyati va tarixiy-madaniy merosi turli mintaqalar bilan samarali aloqalar o‘rnatish imkonini berdi. Yevropa davlatlari bilan munosabatlarni kengaytirish O‘zbekiston tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Fransiya Respublikasi bilan aloqalar ham aynan shu strategik yo‘nalish doirasida rivojlanib bormoqda. Ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarda siyosiy muloqot, iqtisodiy manfaatdorlik, investitsiyaviy hamkorlik, madaniy yaqinlik va xalqaro tashkilotlar doirasidagi o‘zaro qo‘llab-quvvatlash muhim o‘rin tutadi. Bu esa xalqaro munosabatlar nazariyalarida ilgari surilgan asosiy tamoyillarning amaliyotda qanday namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.”[7] Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikni ta’minlash, xavfsizlikni mustahkamlash va iqtisodiy integratsiyani rivojlantirishda O‘zbekistonning faolligi tobora ortib bormoqda. Fransiya esa Yevropa davlatlari orasida Markaziy Osiyo bilan aloqalarni kengaytirishga qiziqish bildirayotgan muhim davlatlardan biridir[8]. Bu holat O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi munosabatlarni faqat ikki tomonlama aloqalar doirasida emas, balki kengroq mintaqaviy va geosiyosiy jarayonlar kontekstida ham tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. Chunki Fransiyaning Yevropa Ittifoqidagi siyosiy-iqtisodiy o‘rni hamda O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi geostrategik mavqei ikki davlat o‘rtasidagi sheriklikni yanada dolzarb qiladi. Shu

7 Raximov M.A. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari va mintaqaviy xavfsizlik arxitekturasi. // O‘zbekiston tarixi, 3-son. – Toshkent: Fan, 2020. – B.105–115.

8 Dunyo” axborot agentligi (O‘zbekiston TIV). Xalqaro hamkorlik va investitsiya dasturlariga doir tahliliy materiallar. // https://dunyo.info

bois bu munosabatlar oddiy diplomatik muloqotdan ko‘ra kengroq mazmunga ega bo‘lib, iqtisodiy taraqqiyot, madaniyatlararo muloqot va xalqaro barqarorlik bilan uzviy bog‘liqdir.

“Bugungi kunda davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar faqat siyosiy aloqalar bilan chegaralanib qolmay, iqtisodiy, ilmiy-texnik, ekologik, ta’limiy va ijtimoiy sohalarni ham qamrab olmoqda. Bu esa diplomatiyaning funksiyalarini yanada kengaytirib, uni universal tashqi siyosiy vositaga aylantirmoqda. Iqlim o‘zgarishi, energetika xavfsizligi, oziq-ovqat ta’minoti, migratsiya va madaniy merosni asrash kabi global masalalar davlatlardan yanada yaqinroq hamkorlikni talab etmoqda. Bunday sharoitda davlatlararo munosabatlarning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘zaro ishonch, huquqiy asoslarning mustahkamligi, tashqi siyosiy strategiyaning puxtaligi va professional diplomatik salohiyatga bog‘liq bo‘ladi. Shu jihatdan qaraganda, O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi nafaqat ikki davlat manfaatlariga, balki kengroq xalqaro hamkorlik tizimiga ham xizmat qilmoqda.”[9] Sheriklik aloqalarini rivojlantirishda huquqiy asoslarning mavjudligi alohida ahamiyatga ega. Davlatlar o‘rtasida imzolangan bitimlar, shartnomalar, deklaratsiyalar va xalqaro konvensiyalar ikki tomonlama munosabatlarning huquqiy poydevorini tashkil etadi. Ushbu hujjatlar tomonlarning majburiyatlarini belgilaydi, hamkorlik yo‘nalishlarini aniqlaydi va kelgusidagi amaliy faoliyat uchun institutsional asos yaratadi. O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi aloqalarda ham shartnomaviy-huquqiy baza muhim o‘rin tutadi. Siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy aloqalar, investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, madaniy-gumanitar hamkorlik va ta’lim sohasidagi kelishuvlar mazkur munosabatlarning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Demak, har qanday strategik sheriklikning mustahkamligi avvalo uning huquqiy asoslari va amaliy mexanizmlariga bog‘liqdir.

Xalqaro hamkorlik va diplomatik aloqalarning nazariy asoslari zamonaviy davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni chuqur anglashda muhim metodologik poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Realizm, liberalizm va konstruktivizm kabi nazariy yondashuvlar davlatlararo aloqalarning turli jihatlarini tahlil qilish imkonini beradi. Diplomatiya esa ushbu nazariy

9 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qonuni. (O‘RQ-330). 09.08.2012 y. // Lex.uz

qarashlarni amaliyotga tatbiq etuvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishda aynan shu nazariy asoslar muhim ahamiyatga ega, chunki ikki davlat o‘rtasidagi sheriklik siyosiy ishonch, iqtisodiy manfaatdorlik, madaniy yaqinlik va xalqaro huquqiy me’yorlarga asoslangan holda rivojlanmoqda. Mazkur nazariy yondashuvlar keyingi bo‘limlarda O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarining shakllanishi, tarixiy rivojlanishi va istiqbollarini batafsil tahlil qilish uchun zarur ilmiy asos yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgustda davlat mustaqilligini e’lon qilgach, xalqaro maydonda o‘zining mustaqil tashqi siyosatini shakllantirish jarayoniga kirishdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi, yetakchi davlatlar bilan rasmiy munosabatlarni yo‘lga qo‘yishi hamda xalqaro tashkilotlar tizimiga bosqichma-bosqich integratsiyalashuvidan iborat edi[10]. Bu davr O‘zbekiston uchun tashqi siyosiy yo‘nalishlarni belgilash, yangi diplomatik maktabni shakllantirish va milliy manfaatlarga mos keluvchi xalqaro sheriklik tizimini yaratish bosqichi bo‘ldi. Shu jarayonda Yevropa davlatlari, xususan Fransiya Respublikasi bilan aloqalarni rivojlantirish alohida strategik ahamiyat kasb etdi.

Fransiya Yevropaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan nufuzli davlatlaridan biri sifatida O‘zbekiston uchun xalqaro maydonda muhim hamkorlardan biri bo‘lib ko‘rindi. O‘zbekiston esa Markaziy Osiyoda mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlagan, boy tarixiy merosga va muhim geosiyosiy mavqega ega davlat sifatida Fransiyaning mintaqaga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirgan omillardan biri bo‘ldi. “Fransiya Respublikasi O‘zbekiston mustaqilligini tan olgan dastlabki Yevropa davlatlaridan biri sifatida ikki tomonlama munosabatlarning shakllanishida muhim rol o‘ynadi. “O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasida rasmiy diplomatik munosabatlarning 1992-yilda o‘rnatilishi mamlakatimizning Yevropa siyosiy makoniga kirib borishi va xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlash yo‘lida

10 O‘zbekiston tarixi (1991-2020 yillar). 3-kitob. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi FA Tarix instituti, 2021. – B.246.

muhim qadam bo‘ldi. Mazkur voqea ikki davlat o‘rtasida siyosiy muloqotni yo‘lga qo‘yish, savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, investitsiyaviy imkoniyatlarni o‘rganish hamda madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirish uchun zarur huquqiy va institutsional asos yaratdi”[11]. Aynan shu bosqichda O‘zbekiston o‘zining tashqi siyosatda ko‘p vektorli yondashuvga tayanishini namoyon etdi. Bu yondashuv mamlakatning faqat bir mintaqa yoki bir siyosiy markaz bilan cheklanib qolmasdan, turli davlatlar bilan teng huquqli va o‘zaro manfaatli aloqalarni shakllantirishga intilayotganini ko‘rsatdi. Fransiya bilan munosabatlarning dastlabki davrdanoq ijobiy ruhda shakllanishi kelgusida kengroq hamkorlik yo‘nalishlari uchun qulay siyosiy muhit yaratdi.”[12] O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri G‘arb davlatlari bilan munosabatlarni rivojlantirish, xalqaro iqtisodiy tizimga moslashish va xorijiy tajribani o‘rganishdan iborat edi. Bu davrda Fransiya Markaziy Osiyo mintaqasiga ehtiyotkor, ammo izchil qiziqish bildira boshladi. Sobiq sovet hududida yangi mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishi Yevropa davlatlari uchun ham yangi diplomatik va iqtisodiy imkoniyatlar ochdi. O‘zbekistonning mintaqadagi markaziy geografik joylashuvi, tabiiy resurslari, demografik salohiyati va tarixiy-madaniy merosi Fransiya uchun alohida e’tiborli omillar sifatida namoyon bo‘ldi. Shu bois ikki davlat o‘rtasidagi dastlabki muloqot faqat rasmiy diplomatik munosabatlarni yo‘lga qo‘yish bilan cheklanib qolmadi, balki kelgusida savdo, investitsiya, ta’lim, madaniyat va ilm-fan sohalarida hamkorlikni rivojlantirish istiqbollarini ham qamrab oldi. Bu jarayon O‘zbekistonning xalqaro maydondagi yangi o‘rnini belgilashda va Fransiyaning Markaziy Osiyodagi siyosiy-iqtisodiy manfaatlarini shakllantirishda muhim bosqich bo‘ldi.

Ikki tomonlama aloqalarning rivojlanishida rasmiy tashriflar va yuqori darajadagi uchrashuvlar alohida o‘rin tutdi. 1993- 28-30 oktabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Fransiyaga amalga oshirilgan rasmiy tashrif davlatlararo munosabatlarning mustahkamlanishida muhim siyosiy voqea sifatida baholanadi. Ushbu

11 Botirov A. Yangi O‘zbekistonning Fransiya bilan savdo-iqtisodiy aloqalari: istiqbol va natijalar. // Xalqaro munosabatlar. – Toshkent: JIDU, 2023. –B. 45-52.

12 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qonuni. (O‘RQ-330). 09.08.2012 y. // Lex.uz

tashrif davomida siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator kelishuvlar imzolandi. Mazkur kelishuvlar ikki tomonlama aloqalarni faqat umumiy bayonotlar darajasida emas, balki amaliy mazmunga ega bo‘lgan huquqiy asoslar bilan boyitdi. Rasmiy tashriflar jarayonida tomonlar o‘zaro manfaatli yo‘nalishlarni aniqlab oldi, iqtisodiy sheriklik imkoniyatlari muhokama qilindi, madaniy va ta’lim sohalarida aloqalarni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi. Bunday uchrashuvlar o‘zaro ishonchni mustahkamlash, davlatlararo muloqotni muntazamlashtirish va keyingi bosqichdagi hamkorlik uchun zarur siyosiy muhitni yaratishda katta rol o‘ynadi.

“1995-yil 1-mart kuni Parij shahrida O’zbekiston elchihonaning rasmiy ochilish marosimi bo’lob o’tdi”[13]. O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasida diplomatik vakolatxonalar faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi ikki tomonlama aloqalarning institutsional jihatdan mustahkamlanishiga xizmat qildi. O‘zbekiston Respublikasining Parij shahrida elchixonasi ochilishi va Fransiyaning 1992-yil 16-iyundaToshkentda o’z faoliyatini boshlagan diplomatik vakolatxonasi davlatlararo munosabatlarni doimiy asosda olib borish imkonini berdi. “Elchixonalar faqat siyosiy muloqot vositasi bo‘lib qolmay, balki iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, madaniy tadbirlarni tashkil etish, ta’lim va ilmiy hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash, fuqarolar va tashkilotlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashda ham muhim ko‘prik vazifasini bajardi. Aynan diplomatik vakolatxonalar orqali ikki davlat o‘rtasida rasmiy axborot almashinuvi, kelishuvlarni tayyorlash, delegatsiyalar tashrifini muvofiqlashtirish va amaliy loyihalarni ilgari surish imkoniyati kuchaydi. Bu esa 1992-yillarning boshlarida shakllangan munosabatlarning keyingi yillarda yanada barqaror va tizimli tus olishiga zamin yaratdi”[14].1994-yil 27–28-aprel – Fransiya Prezidenti Fransua Mitteranning O‘zbekistonga tarixiy javob tashrifi. Toshkentda Fransiya Respublikasining yangi elchixonasi binosi ochildi va "Do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risida"gi shartnoma imzolandi.1996-yil 21–23-aprel – Islom Karimovning Fransiyaga ikkinchi rasmiy tashrifi.

13 Botirov A. Yangi O‘zbekistonning Fransiya bilan savdo-iqtisodiy aloqalari: istiqbol va natijalar. // Xalqaro munosabatlar. – Toshkent: JIDU, 2023. –B. 45-52.
14 Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi.* – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. –B. 46.

Tashrif doirasida Parijdagi YUNESKO qarorgohida Amir Temur tavalludining 660 yilligi xalqaro miqyosida nishonlandi.

Bu davrda iqtisodiy yo‘nalishdagi aloqalar ham asta-sekin shakllana boshladi. O‘zbekiston mustaqillikdan keyingi o‘tish davrida bozor iqtisodiyotiga moslashish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ishlab chiqarish sohalarini modernizatsiya qilishga ehtiyoj sezayotgan edi[15]. Fransiya esa yuqori texnologiyalar, sanoat, energetika, transport va infratuzilma sohalarida katta tajribaga ega davlat sifatida O‘zbekiston uchun istiqbolli hamkor hisoblandi. O‘zbekiston bozoridagi imkoniyatlarni o‘rganishga kirishdi, xususan energetika, transport, sanoat va kommunikatsiya sohalaridagi hamkorlik istiqbollari muhokama qilindi. Ushbu jarayon darhol katta iqtisodiy natijalar bermagan bo‘lsa-da, keyingi yillarda yuzaga kelgan yirik loyihalar uchun tajriba, ishonch va institutsional asos vazifasini bajardi.

Madaniy-gumanitar yo‘nalish ham O‘zbekiston va Fransiya munosabatlarining dastlabki davridayoq muhim o‘rin egalladi. Fransuz tilining O‘zbekistonda o‘qitilishi, madaniy almashinuv dasturlarining yo‘lga qo‘yilishi, san’at, adabiyot, tarix va ta’lim sohalaridagi dastlabki muloqotlar ikki xalq o‘rtasidagi o‘zaro yaqinlikni kuchaytirishga xizmat qildi. Fransiya madaniy diplomatiyani samarali olib borayotgan davlat sifatida o‘z tili va madaniyatini dunyoning turli mintaqalarida targ‘ib etib keladi. O‘zbekiston uchun esa Fransiya bilan madaniy aloqalar mamlakatning boy tarixiy merosini Yevropa jamoatchiligiga tanitish, ta’lim va ilmiy hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish nuqtai nazaridan ahamiyatli bo‘ldi. Shu tariqa madaniy-gumanitar munosabatlar siyosiy va iqtisodiy aloqalarga qo‘shimcha ijtimoiy asos yaratdi. Chunki xalqlar o‘rtasidagi madaniy yaqinlik va o‘zaro tushunish davlatlararo sheriklikning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

1991–2004-yillar O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi munosabatlarning shakllanish va dastlabki mustahkamlanish davri sifatida tavsiflanadi. Ushbu bosqichda ikki davlat o‘rtasida

15 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti rasmiy portali. // https://isrs.uz

rasmiy siyosiy muloqot yo‘lga qo‘yildi, huquqiy asoslar yaratildi, diplomatik vakolatxonalar faoliyati tashkil etildi va hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi. “Bu davrda amalga oshirilgan ishlar o‘z ko‘lami jihatidan keyingi yillardagi yirik loyihalar darajasida bo‘lmagan bo‘lsa-da, strategik nuqtai nazardan nihoyatda muhim edi. Chunki har qanday uzoq muddatli davlatlararo sheriklik avvalo ishonch, huquqiy kafolat va institutsional muloqot asosida shakllanadi. O‘zbekiston va Fransiya munosabatlarining dastlabki yillari aynan ana shu poydevorni yaratgani bilan tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi”[16]. 2002-yillarning ohirlaridan boshlab O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi rasmiy muloqot yanada izchil tus ola boshladi. Bu davrda ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikning huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan bir qator muhim hujjatlar imzolandi. “Savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar va ta’lim sohalarida erishilgan kelishuvlar ikki tomonlama munosabatlarning institutsional poydevorini yanada mustahkamladi. Ayniqsa, investitsiyalarni rag‘batlantirish va himoya qilish, iqtisodiy sheriklikni kengaytirish, madaniy almashinuvlarni rivojlantirishga oid kelishuvlar kelgusida Fransiya kompaniyalari va tashkilotlarining O‘zbekistondagi faoliyati uchun muhim huquqiy zamin yaratdi. Shu jihatdan mazkur davrni ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarning shakllanishdan tizimlashuvga o‘tish bosqichi sifatida baholash mumkin.”[17] Iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish maqsadida tomonlar o‘zaro savdo aloqalarini kengaytirish, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish va investitsiyalarni jalb qilish masalalariga alohida e’tibor qaratdi. Fransiya kompaniyalari O‘zbekiston iqtisodiyotining turli sohalariga kirib kelish imkoniyatlarini o‘rganar ekan, birinchi navbatda mamlakatning tabiiy resurslari, ichki bozori, strategik joylashuvi va mintaqaviy imkoniyatlariga e’tibor qaratdi. O‘zbekiston esa Fransiyaning texnologik salohiyati, sanoat tajribasi, boshqaruv madaniyati va investitsiyaviy imkoniyatlaridan foydalanishga intildi. Bu o‘zaro manfaatdorlik ikki davlat iqtisodiy aloqalarining asta-sekin kengayishiga sabab bo‘ldi. Garchi 1993-yillarda savdo

16 Боймуродов С. Ўзбекистон ва Франция ўртасидаги инвестициявий ҳамкорликни ривожлантириш йўллари. // Иқтисодиёт ва молия. – Тошкент, 2022. – № 4. –Б. 55-61.
17 O‘zbekiston Respublikasining Fransiyadagi elchixonasi rasmiy portali // Embassy of Uzbekistan in France -P.7.

hajmi hali yuqori darajaga chiqmagan bo‘lsa-da, unda ijobiy o‘sish belgilari kuzatildi. Muhimi, aynan shu davrda ikki davlat ishbilarmon doiralari o‘rtasida dastlabki aloqa kanallari shakllandi. Bu jarayonda hukumatlararo komissiyalar, ishchi guruhlar va turli maslahatlashuv mexanizmlarining shakllanishi alohida ahamiyat kasb etdi. Bunday tuzilmalar ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik masalalarini muntazam muhokama qilish, mavjud muammolarni aniqlash va amaliy yechimlar ishlab chiqish imkonini berdi. Siyosiy muloqotning izchil davom etishi esa bu mexanizmlarning samarali ishlashi uchun zarur muhitni ta’minladi.

Ikki davlat rahbarlari, hukumat vakillari, vazirliklar va diplomatik doiralar o‘rtasidagi uchrashuvlar o‘zaro ishonchni mustahkamladi. Rasmiy muzokaralar davomida savdo, investitsiya, madaniyat, transport va ta’lim yo‘nalishlaridagi masalalar muhokama qilinib, kelgusidagi aloqalarning asosiy yo‘nalishlari belgilab borildi. Bu esa O‘zbekiston va Fransiya munosabatlarini tasodifiy yoki epizodik aloqalar darajasidan doimiy va tizimli sheriklik bosqichiga olib chiqdi. Madaniy-gumanitar sohada ham mazkur davrda sezilarli faollik kuzatildi. Fransiya madaniy markazlari, til o‘rganish dasturlari va ta’lim sohasidagi dastlabki hamkorlik loyihalari orqali ikki xalq o‘rtasidagi aloqalar mustahkamlandi. Fransuz tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib bordi, oliy ta’lim muassasalari va ilmiy doiralar o‘rtasida tajriba almashish imkoniyatlari yuzaga keldi. Bundan tashqari, ilmiy-texnik yo‘nalishdagi dastlabki hamkorlik ham kelgusida yanada kengroq loyihalar uchun asos yaratdi. O‘zbekistonning qadimiy madaniy merosi, tarixiy shaharlari va arxeologik yodgorliklari Fransiya ilmiy va madaniy doiralari e’tiborini tortdi. Bu esa ikki tomonlama munosabatlarda madaniyat va ilm-fanning faqat qo‘shimcha yo‘nalish emas, balki mustahkam ijtimoiy poydevor vazifasini bajarishini ko‘rsatdi.

“2003-yillarning ikkinchi yarmi O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi munosabatlarning nisbatan barqarorlashuv davri bo‘ldi. Bu bosqichda ikki tomonlama aloqalar faqat siyosiy muloqot bilan cheklanib qolmay, iqtisodiy, madaniy, ta’limiy va ilmiy

yo‘nalishlarni ham qamrab ola boshladi”[18]. Xususan, investitsiyalarni o‘zaro himoya qilish, savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va madaniy hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha erishilgan kelishuvlar hamkorlikning huquqiy asoslarini mustahkamladi. “Ushbu bitimlar Fransiya kompaniyalarining O‘zbekiston iqtisodiyotiga kirib kelishi, yangi loyihalar shakllanishi va ishbilarmon doiralar o‘rtasidagi muloqotning faollashuvi uchun imkoniyat yaratdi. Shu bilan birga, O‘zbekistonning o‘tish davri iqtisodiyotida yuzaga kelgan qiyinchiliklar, investitsiya muhitining hali to‘liq shakllanmaganligi va global iqtisodiy vaziyatning beqarorligi hamkorlik sur’atlariga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatdi. Biroq bu omillar umumiy jarayonni to‘xtatib qo‘ymadi, aksincha, tomonlarni ehtiyotkor, ammo izchil yondashuv asosida harakat qilishga undadi.”[19]

2003-yillarning oxiriga kelib O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi munosabatlar yanada tizimli xarakter kasb eta boshladi. Fransiya tomoni O‘zbekistonning tabiiy resurslari, strategik geografik joylashuvi, mehnat salohiyati va bozor imkoniyatlariga qiziqish bildirgan bo‘lsa, O‘zbekiston Fransiyaning yuqori texnologiyalari, investitsiyalari va boshqaruv tajribasidan foydalanishga intildi. Transport va kommunikatsiya sohalaridagi hamkorlik masalalarining muhokama qilinishi ham bejiz emas edi. O‘zbekistonning Yevropa bilan transport aloqalarini rivojlantirishga intilishi, xalqaro logistika tizimiga integratsiyalashuvga bo‘lgan ehtiyoj Fransiya bilan bu yo‘nalishda muloqotni kuchaytirdi. Shu bilan birga, madaniy-gumanitar aloqalar eng barqaror yo‘nalishlardan biri sifatida saqlanib qoldi. Fransiya tomonidan O‘zbekistonda madaniy tadbirlar, ko‘rgazmalar, til o‘rganish dasturlari tashkil etilishi, O‘zbekiston tomonidan esa o‘zining boy tarixiy-madaniy merosini Fransiyada targ‘ib qilishga intilishi xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni mustahkamladi. Ta’lim va ilm-fan sohasidagi dastlabki aloqalar ham 1991–2004-yillar davrida yuzaga kelgan muhim natijalardan biri bo‘ldi. Talabalar almashinuvi, ilmiy tajriba almashish, oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida muloqot o‘rnatish va qo‘shma tadqiqotlar

18 Рашидов С. Ўзбекистоннинг Европа Иттифоқи мамлакатлари билан маданий дипломатияси. // Шарқшунослик. – Тошкент, 2022. – Б. 34-41.

19 Князев А.А. *Векторы и парадигмы внешней политики стран Центральной Азии.* – Бишкек: Изд-во КРСУ, 2012. –С. 250.

o‘tkazish imkoniyatlarining muhokama qilinishi kelgusida akademik hamkorlikning kengayishiga zamin yaratdi. Bu jarayon ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarning faqat siyosiy va iqtisodiy manfaatlar bilan cheklanib qolmaganini, balki intellektual va madaniy almashinuvlar orqali ham mustahkamlanganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, fransuz tili va madaniyatiga qiziqishning kuchayishi, O‘zbekistonning Fransiyadagi madaniy taqdimotlari va ilmiy aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi uzoq muddatli sheriklik uchun muhim ijtimoiy asos yaratdi. Shu jihatdan, 2003-yillar ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarning insoniy, madaniy va ilmiy qatlamlari shakllangan davr sifatida ham muhimdir.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 1991–2004-yillar davomida shakllangan rasmiy muloqot, siyosiy ishonch, huquqiy baza va o‘zaro manfaatdorlik tamoyillari keyingi bosqichdagi hamkorlikning mustahkam poydevoriga aylandi. 2000-yillarga kelib, O‘zbekiston va Fransiya munosabatlari yangi bosqichga o‘tish arafasida edi. Endilikda iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish, yirik investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish, siyosiy muloqotni kengaytirish va madaniy-gumanitar sohalarda aniq dasturlarni yo‘lga qo‘yish ustuvor vazifalarga aylandi. “Shu bois 1991–2000-yillar davrini ikki davlat munosabatlarining shakllanish, o‘zaro ishonchni mustahkamlash va institutsional poydevor yaratish bosqichi sifatida baholash mumkin. Mazkur bosqichda yaratilgan asoslar keyingi yillarda O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi aloqalarning izchil rivojlanishini ta’minlagan muhim tarixiy omil bo‘lib xizmat qildi.”[20]

O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasida 1991–2004-yillar davomida rasmiy diplomatik munosabatlarning o‘rnatilishi va bosqichma-bosqich rivojlanishi ikki tomonlama sheriklik tarixida alohida o‘rin tutadi. Bu davrda siyosiy muloqot yo‘lga qo‘yildi, diplomatik vakolatxonalar faoliyati tashkil etildi, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar va ta’lim sohalaridagi hamkorlikning dastlabki yo‘nalishlari shakllandi. Ushbu jarayonlar O‘zbekistonning mustaqil tashqi siyosati va Fransiyaning Markaziy Osiyoga nisbatan qiziqishi kesishgan nuqtada yuzaga kelib, kelgusidagi strategik sheriklikka yo‘l ochdi.

20 Raximov M.A. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari va mintaqaviy xavfsizlik arxitekturasi. // O‘zbekiston tarixi, 3-son. – Toshkent: Fan, 2020. –B. 105–115.

Aynan 1992-yillarda yaratilgan huquqiy, siyosiy va institutsional asoslar keyingi bosqichlarda ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarning yanada kengayishi, chuqurlashishi va amaliy mazmun bilan boyishiga xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov Islom Abdug‘aniyevich. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O‘zbekiston,1997.–326b.

2. Karimov Islom Abdug‘aniyevich. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. – Toshkent:O‘zbekiston,1999.–410b.

3. Karimov Islom Abdug‘aniyevich. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. T. 6. – Toshkent:O‘zbekiston,1998.–429b.

4. O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi va unga oid normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami. – Toshkent, turli nashrlar.

5. O‘zbekiston Respublikasi bilan Fransiya Respublikasi o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatish to‘g‘risidagi hujjatlar va qo‘shma bayonotlar (1992–2004 yy.).

6. Mirqosimov S.M.O‘zbekistonning Yevropa mamlakatlari bilan ijtimoiy iqtisodiy va madaniy munosabatlari.–Toshkent:Fan,2018.

7. Saidov Akmal Xolmatovich. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlari va tashqi siyosati.–Toshkent:Akademiya,2014.

8. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘plami. – Toshkent: Adolat,turli yillar.Birlashgan Millatlar Tashkiloti.

9. Yearbook of the United Nations. New York: United Nations, 1992–2004.UNESCO hujjatlari va hisobotlari.–Paris,1992–2004.

10. O‘zbekiston–Fransiya munosabatlariga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar to‘plami“Xalqaro munosabatlar”, “Sharqshunoslik”, “O‘zMU xabarlari” ilmiy jurnallari materiallari.

11. O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi fondlari: O‘zbekiston–Fransiya diplomatik aloqalariga oid hujjatlar (1991–2004 yy.).